

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HARBIY XIZMAT TIZIMI

Alijonov Bahtiyor Xoshimovich

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Ne'matov Otabek Oybek o'g'li

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich kursanti

G'ofurov Ro'zmuhammad Shavkatjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich kursanti

Rahmatjonov Halimjon Hakimjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich kursanti

Аннотация: В данной статье анализируются правовые, организационные и социальные основы системы военной службы в Республике Узбекистан. Рассматриваются виды военной службы, содержание военной службы, реформы в системе Вооруженных Сил, а также права и обязанности военнослужащих. Также раскрывается роль системы военной службы в укреплении оборонного потенциала страны и обеспечении национальной безопасности.

Ключевые слова: Военная служба, воинская обязанность, Вооруженные силы, оборона, национальная безопасность, военнослужащие, военное законодательство, виды службы.

Abstract: This article on military service in the Republic of Uzbekistan analyzes the legislative, social foundations of the organization. Types of military service, the content of military efficiency, products in the Armed Forces system, and the rights and needs of military personnel are covered. , the role of the service in ensuring the country's defense in any situation and national conditions is revealed.

Keywords: Military service, military obligation, Armed Forces, defense, national security, military personnel, military legislation, types of service.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmat tizimining huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy asoslari tahlil qilinadi. Harbiy xizmatning turlari, harbiy majburiyatning mazmuni, Qurolli Kuchlar tizimidagi islohotlar hamda harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari yoritiladi. Shuningdek, harbiy xizmat tizimining mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash va milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zi : Harbiy xizmat, harbiy majburiyat, Qurolli Kuchlar, mudofaa, milliy xavfsizlik, harbiy xizmatchi, harbiy qonunchilik, xizmat turlari.

Kirish: Har qanday mustaqil davlatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini ta'minlashda samarali harbiy xizmat tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng milliy manfaatlarga mos, zamonaviy va huquqiy asoslangan harbiy xizmat tizimini shakllantirdi. Ushbu tizim davlat mudofaa siyosatining ajralmas qismi bo'lib, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini doimiy ta'minlashga xizmat qiladi. Harbiy xizmat tizimi nafaqat mamlakat xavfsizligini, balki fuqarolarning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishini ham ta'minlaydi.

Haqiqiy harbiy xizmat – chaqiruv yoki kontrakt bo'yicha oddiy askarlar, syerjantlar va ofitsyerlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir. Harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasi Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan oddiy askarlar (matroslar), syerjantlar (starshinalar) va kichik ofitsyerlar uchun — 45 yosh; Katta ofitsyerlar uchun — ellik yosh, polkovniklar (I rang kapitanlari) uchun — 55 yosh; Genyeral-mayor, genyeral-leytenant va genyeral-polkovnik harbiy unvonidagi ofitsyerlar uchun — 60 yosh etib belgilanadi. Harbiy xizmatda bo'lish yoshi chegarasiga yetgan, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, shuningdek egallab turgan lavozimida yuksak kasbiy tayyorgarligi, katta amaliy ish tajribasi bo'lgan, sog'lig'ining holatiga ko'ra harbiy xizmatni o'tashga yaroqli harbiy xizmatchilarning xizmat muddati harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar rahbarlari yoki shunday vakolatlar berilgan boshqa mansabdor shaxslar tomonidan harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasidan 5

yilgacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin. Harbiy xizmat – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turidir.

Harbiy xizmatning turlari:

Muddatli harbiy xizmat; Safarbarlik chaqiruvi rezyeridagi harbiy xizmat; Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni o'tagan rezyervchilar xizmati. Tinchlik davrida oddiy askarlar va syerjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezyeridagi xizmatga o'n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo'lgan, salomatligiga ko'ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar. Muddatli harbiy xizmat – chaqirilish yoshidagi fuqarolarning oddiy askarlar va syerjantlar tarkibi lavozimlarida, shuningdek muqaddam harbiy xizmatni o'tamagan ofitsyerlarning qonun hujjatlarida belgilangan muddat mobaynida Qurolli Kuchlar safidagi majburiy xizmatidir. Muddatli harbiy xizmat muddati kalendar hisobida 12 oy etib belgilanadi. Safarbarlik chaqiruvi rezyeridagi harbiy xizmat

Harbiy xizmatga yaroqli, shu jumladan cheklovlar bilan yaroqli bo'lgan hamda chaqirilish muddatini kechiktirish va chaqirilishdan ozod etilish huquqiga ega bo'lmagan, biroq Qurolli Kuchlar safiga navbatdagi muddatga chaqirilmagan shaxslar safarbarlik chaqiruvi rezyervi safiga olinadilar. Safarbarlik chaqiruvi rezyeridagi xizmat hududiy prinsip asosida oylik yig'inlar tarzida tashkil etiladi hamda chaqiriluvchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus hisobvarag'iga pul badallari kiritilishini nazarda tutadi. Safarbarlik chaqiruvi rezyeridagi xizmat safiga shaxslar 27 yoshga to'lgunga qadar olinadilar va har yilgi harbiy yig'inlarga jalb etilishlari mumkin, favqulodda vaziyatlar yoki O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz ro'y bergan taqdirda esa haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriladilar. Safarbarlik chaqiruvi rezyeridagi xizmatni o'tagan fuqarolar 27 yoshga to'lganlaridan keyin Qurolli Kuchlar rezyervi tarkibiga o'tkaziladilar. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat

nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir. Harbiy xizmatni kasb tariqasida tanlagan fuqarolar kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni oddiy askarlar, syerjantlar va ofitsyerlar tarkibi lavozimlarida o'taydilar. Harbiy xizmatni o'tash muddatlari va asosiy shartlari kontraktida belgilanadi. Bunda haqiqiy harbiy xizmatga kontrakt bo'yicha kirayotgan shaxslar bilan dastlabki kontrakt 5 yilga tuziladi; kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilar (rezyervdagi harbiy xizmatga majburlar) bilan yangi kontrakt 5 yilga yoki agar harbiy xizmatda bo'lish yoshining chegarasiga yetishiga 5 yildan kam qolgan bo'lsa, kamroq muddatga tuziladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari bilan o'qish davri uchun kelgusida ularning ofitsyerlar tarkibi lavozimlarida harbiy xizmatni kamida 5 yil majburiy o'tashi sharti bilan kontraktlar tuziladi. Harbiy xizmatning kontraktida nazarda tutilgan muddati tugaganidan keyin taraflarning kelishuvi bilan bu muddat yangi kontrakt tuzish orqali uzaytirilishi mumkin. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tash tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi. Muqobil xizmat Muqobil xizmat fuqarolarning umumiy harbiy majburiyatni bajarishining chaqiruv bo'yicha harbiy xizmat o'rniga iqtisodiyot, ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida kam malaka talab etiladigan (yordamchi) ishlarni, shuningdek falokatlar, halokatlar, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir. 18 yoshdan 27 yoshgacha bo'lgan, harbiy ro'yxatda turuvchi va xizmatga chaqirilishi lozim bo'lgan fuqarolar, agar ular diniy ta'limoti qurol-yarog'dan foydalanish va Qurolli Kuchlarda xizmat qilishga yo'l qo'ymaydigan, ro'yxatga olingan diniy tashkilotlar hisobida tursalar, muqobil xizmat huquqiga ega. Muqobil xizmatning muddati 24 oyni, oliy ma'lumotli fuqarolar uchun esa 18 oyni tashkil etadi. Haqiqiy harbiy xizmatda bo'lishning boshlanishi: Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan chaqiriluvchilar hamda zaxiradagi ofitsyerlar uchun — harbiy qismga jo'nash maqsadida mudofaa ishlari organida hozir bo'lgan kun; Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirgan shaxslar uchun — harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi kontrakt kuchga kirgan kun; oliy

harbiy ta'lim muassasalariga, shuningdek vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning o'qish harbiy xizmatga tenglashtiriladigan ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan chaqiriluvchilar, harbiy xizmatga majburlar uchun — tegishli ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan kun; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan harbiy lavozimga tayinlangan shaxslar uchun — tegishli farmon, qaror yoki farmoyish imzolangan kun hisoblanadi. Harbiy xizmatdan rezervga bo'shatilishi yoki iste'foga chiqarilishi munosabati bilan harbiy qism komandirining buyrug'iga binoan shaxsiy tarkib ro'yxatidan chiqarilgan kun harbiy xizmatchi uchun harbiy xizmatda bo'lishning tugashi hisoblanadi.

Muhokama: O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmat tizimi Konstitutsiya, "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonunlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan. Ushbu tizim fuqarolarning Vatan himoyasi yo'lidagi burchini aniq belgilab beradi. Harbiy xizmatning asosiy turlari quyidagilardan iborat: muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat, shartnoma asosidagi harbiy xizmat hamda zaxirada bo'lish. Bu xizmat turlari Qurolli Kuchlarni malakali kadrlar bilan ta'minlashga va jangovar tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan. So'nggi yillarda harbiy xizmat tizimini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Harbiy ta'lim muassasalari faoliyati takomillashtirilib, zamonaviy bilim va texnologiyalar asosida kadrlar tayyorlanmoqda.

Xulosa: O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmat tizimi davlatning mudofaa qobiliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan muhim va mukammal tizim hisoblanadi. Ushbu tizimning huquqiy asoslari aniq belgilangan bo'lib, harbiy xizmat turlarining xilma-xilligi Qurolli Kuchlarning samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Harbiy xizmat tizimini doimiy ravishda rivojlantirish va takomillashtirish mamlakat milliy xavfsizligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining “Mudofaa to'g'risida”gi Qonuni. — Toshkent, amaldagi tahrir.
3. O'zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida”gi Qonuni. — Toshkent, amaldagi tahrir.
4. O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini. — Toshkent, amaldagi tahrir.
5. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat nizomi. — Toshkent: Mudofaa vazirligi nashri.
6. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom nizomi. — Toshkent: Mudofaa vazirligi nashri.
7. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovul xizmatlari nizomi. — Toshkent: Mudofaa vazirligi nashri.
8. Harbiy huquq. O'quv qo'llanma. — Toshkent: Harbiy nashriyot, 2021.
9. Harbiy xizmat asoslari. O'quv qo'llanma. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, 2020.
10. Milliy xavfsizlik asoslari. O'quv qo'llanma. — Toshkent: O'zbekiston, 2019.